



## BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING USULLARI VA METODIK TEXNOLOGIYASI

*Qodirova Gulnoza*

*Fargʻona viloyat pedagogik mahorat markazi  
maktabgacha, boshlangʻich va maxsus taʼlim metodikalari  
kafedrası professor-oʻqituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada boʻlajak rahbarlarni tayyorlash jarayonida qoʻllaniladigan usullar va metodik texnologiyalar tahlil qilinadi. Taʼlim jarayonida nazariya bilan amaliyotni uygʻunlashtirish, interfaol metodlardan foydalanish va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yoʻllari koʻrib chiqiladi.

**Kalit soʻzlar:** Boshqaruv, rahbarlik, metod, texnologiya, interfaol metodlar, kompetensiya, taʼlim.

Boshqaruv tushunchasi tor maʼnoda biror-bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur boʻlgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarining foyda keltirishi, samara berishi, faoliyat yoʻnalishini toʻgʻri tanlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayonning borishiga bogʻliq boʻladi. Boshqaruv nafaqat korxona doirasida, qolaversa, butun bir jamiyat, davlatni oʻz tanlagan yoʻli maqsad va intilishlariga yetaklovchi, iqtisodiyotni kuchli, barqaror ishlovchi mexanizmga aylantirishda muhim taʼsir etuvchi kuch hisoblanadi. Boshqaruvni jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bogʻlab, shu bilan birga boshqaruvning ikki tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda oʻrganish lozim.

Zamonaviy boshqaruv sharoitida rahbarlardan nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy koʻnikmalar, ijtimoiy-emotsional intellekt va innovatsion yondashuv talab qilinadi. Shu sababli, rahbarlikka tayyorlash jarayoni anʼanaviy taʼlim usullari bilan



chegaralanib qolmasdan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarur.

Boshqaruvchilik faoliyatiga tayyorlashning asosiy usullari

1. Nazariy tayyorgarlik – boshqaruv nazariyalari, menejment, psixologiya va pedagogika asoslarini o‘rganish.
2. Amaliy mashg‘ulotlar – real vaziyatlar modellashtirilgan treninglar, amaliy topshiriqlar.
3. Trening va seminarlar – kommunikatsiya, nizolarni boshqarish, liderlik qobiliyatlarini shakllantirish.
4. Kuzatuv va tahlil – tajribali rahbarlarning faoliyatini kuzatib, ulardan o‘rnak olish.
5. Mustaqil ta’lim – kitob o‘qish, elektron kurslar va ilmiy manbalarni tahlil qilish.

To‘g‘ridan to‘g‘ri tajriba o‘tkazish mumkin bo‘lmaganday, mavjud bo‘lmagan va hech qachon bo‘lmaydigan hodisani kuzatish mumkin emas. Ammo, ko‘p rahbarlar faqat real va his qiladigan narsani ko‘rishga va bu, natijada, ularning qandaydir ko‘rib bo‘ladigan narsaga e’tibor berishida ifodalanishi shart.

Modellashtirish, — bugungi vaqtga kelib kelajakning variantlarini ko‘rishning va alternativ qarorlarning potensial oqibatlarini obyektiv solishtirishga imkon beradigan aniqlashning yagona tizimlashtirilgan usuli. Devid B. Xers ta’kidlashicha: “Rahbar mavjud eng yaxshi alternativani o‘z resurslarini taqsimlash, o‘zi va boshqalar uchun harakatlar navbatini belgilashga, yangi odamlar va material resurslarni jalb etish uchun tanlab olishi kerak. Buning uchun u qisqa va uzoq muddatli kelajakda qarorlarning oqibatlari paydo bo‘ladigan muhit xususiyatlari va barqarorligi ta’rifiga ishonishi kerak. U bunday bir paytning o‘zida muqarrar va oldindan aytib bo‘lmaydigan muhitning butun noaniqligini tasavvur qilishi kerak”.



Boshqaruv ilmining modellari yuqori darajada bu maqsadlarga moslashgan va kuchli tahliliy vosita sifatida murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish bilan bog‘liq ko‘p muammolarni hal etishga imkon beradi

Boshqaruvchilik faoliyatiga tayyorlashning usullari va metodik texnologiyasi:

- Keys-stadi (case-study) – hayotiy muammolar asosida vaziyatlarni yechish texnologiyasi.
- Rol o‘ynash usullari – rahbar va xodimlar rollarini ijro etib, muammoli vaziyatlardan chiqish.
- Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Debat”, “Klaster”, “Baliq skeleti” usullari.
- Elektron ta’lim texnologiyalari – onlayn kurslar, virtual treninglar, sun’iy intellekt yordamida mashg‘ulotlar.
- Kouching va mentorlik – tajribali rahbarlar tomonidan individual maslahat va qo‘llab-quvvatlash.

Boshqaruvchilik faoliyatiga tayyorlashning usullari va metodik texnologiyasi amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Talabalarda liderlik va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish.
- Stressni boshqarish va qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish.
- Jamoada ijobiy muhit yaratish.
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etishga tayyorlash.

Boshqaruvchilik faoliyatiga tayyorlashda usullar va texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash kelajakdagi rahbarlarning professional sifatlarini shakllantiradi. An’anaviy nazariy bilimlar interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirilganda, bo‘lajak



boshqaruvchilar zamonaviy talablar darajasida tayyor bo'ladilar. Boshqaruv insonlarni ongli mehnatga, tadbirkorlikka qiziqtirish, ishga mas'uliyatlilikini nazorat qilish, ularning bilim va ko'nikmalari faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash, rag'batlantirishni tashkil etishdir. Bu fan predmeti ham xo'jalik yuritishning barcha bo'g'inlarida boshqarishni tashkil etish shakllari, uslublarini ifodalovchi nazariy va amaliy tamoyillari majmuyidan iborat.

Boshqaruv usullarini puxta egallagan, qo'llay biladigan rahbar shu faoliyatni samarali boshqarishda nafaqat ishlab chiqarishga, qolaversa, butun iqtisodiyotning rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.
2. T.Fayziyev, U.Zunnunova. Art marketing. O'quv qo'llanma. T.: Kamalak. 2019 yil. – 234 b.
3. Qosimova D.S. "Menejment asoslari". O'quv-uslubiy majmua.T.: TDIU 2011.– 428 b.
4. Менеджмент. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2010. – 496.
5. Nurimbetov.R. Menejment: Amaliy mashqlar. T., Musiqa. 2007. – 187 b
6.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=07f0edgAAAAJ&citation\\_for\\_view=07f0edgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=07f0edgAAAAJ&citation_for_view=07f0edgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC)
7. [KOUCHING TEXNOLOGIYASI PEDAGOGIK KOMPETENTSIYANI OSHIRISH SHAKLI SIFATIDA](#) I Tuychiyeva, M Hokimjonova, D Muqimova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022